

## O'QUVCHI YOSHLAR SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA JAMOAVIY MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

**J.T.Yuldoshev**

*Iqtisodiyod va pedagogika universiteti "Pedagogika va o'qitish metodikasi"  
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

**Boysunova Marjona Farit qizi**

*Iqtisodiyod va pedagogika universiteti Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich  
magistranti*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari hamda ularning o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda jamoa o'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi, mas'uliyati va muloqot madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik muhit sifatida tahlil qilinadi. Jamoaviy ishni tashkil etish tamo yillari, shakl va usullari hamda pedagogik boshqaruv mexanizmlari nazariya va amaliyot uyg'unligida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari jamoaviy munosabatlarni maqsadli tashkil etish o'quvchilarda mas'uliyat, hamkorlik va ijtimoiy faollik kabi shaxsiy sifatlarning samarali rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

**KALIT SO'ZLAR:** *jamoaviy munosabatlar, shaxsiy sifatlar, ta'lim jarayoni, pedagogik tamoyillar, jamoaviy ish, hamkorlik, mas'uliyat, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik, pedagogik boshqaruv*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье рассматриваются теоретические и практические основы организации коллективных отношений в образовательном процессе и их значение в развитии личностных качеств учащейся молодежи. Коллектив анализируется как важная педагогическая среда формирования социальной активности, ответственности и коммуникативной культуры личности. В работе раскрыты принципы, формы и методы организации коллективной деятельности, а также механизмы педагогического управления в единстве теории и практики. Результаты исследования показывают, что целенаправленно организованные коллективные отношения способствуют эффективному развитию ответственности, сотрудничества и социальной активности обучающихся.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *коллективные отношения, личностные качества, образовательный процесс, педагогические принципы, коллективная деятельность, сотрудничество, ответственность, коммуникативная культура, социальная активность, педагогическое управление*

**ANNOTATION:** *This article examines the theoretical and practical foundations of organizing collective relationships in the educational process and their role in*

*developing students' personal qualities. The collective is analyzed as an important pedagogical environment for forming social activity, responsibility, and communication culture. The study explores the principles, forms, and methods of organizing collective work, as well as pedagogical management mechanisms, through the integration of theory and practice. The research findings demonstrate that purposefully organized collective relationships contribute to the effective development of responsibility, cooperation, and social activity among students.*

**Keywords:** *collective relationships, personal qualities, educational process, pedagogical principles, collective work, cooperation, responsibility, communication culture, social activity, pedagogical management*

**KIRISH.** Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, mas'uliyatli va jamoada samarali faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Ushbu vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlarning qanday tashkil etilganiga bevosita bog'liq. Chunki shaxsiy sifatlarning aksariyati individual o'qish jarayonida emas, balki jamoa doirasidagi real ijtimoiy munosabatlar orqali rivojlanadi. Ta'lim muassasalarida jamoaviy munosabatlar o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va o'zini namoyon etishi uchun muhim muhit hisoblanadi. Jamoa ichida o'quvchilar birgalikda ishlash, mas'uliyatni bo'lishish, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida faoliyat yuritishni o'rganadilar. Aynan shu jarayonda muloqot madaniyati, tashabbuskorlik, intizom va qat'iyatlilik kabi shaxsiy fazilatlar shakllanadi va mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, jamoaviy munosabatlar o'z-o'zidan samarali shakllanmaydi. Agar jamoa bilan ishlash tasodifiy yoki faqat tashkiliy darajada olib borilsa, sinfda psixologik bo'linish, passivlik va nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda o'quvchilar jamoani rivojlantiruvchi omil sifatida emas, balki majburiy muhit sifatida qabul qiladilar. Natijada shaxsiy fazilatlarning rivojlanishi sekinlashadi yoki salbiy yo'nalishda kechadi. Pedagogik nuqtai nazardan, jamoaviy munosabatlar nazariy tamoyillar asosida tashkil etilib, amaliy shakl va usullar bilan uyg'unlashgandagina kutilgan natijani beradi. Jamoani maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish, adolatli baholash va sog'lom psixologik muhit yaratish shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi. Shu sababli jamoaviy ish shakllari va ularni boshqarish usullarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berish hamda ularning o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqotda jamoaviy ish shakllari, pedagogik boshqaruv usullari va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi nazariya va amaliyot uyg'unligida tahlil qilinadi.

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlar ilmiy asoslangan shakl va usullar orqali tashkil etilsa hamda pedagogik boshqaruv bilan qo'llab-quvvatlansa, u holda o'quvchi yoshlarning mas'uliyat, hamkorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollik kabi shaxsiy sifatleri samarali rivojlanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Pedagogika fanida jamoaviy munosabatlarni tashkil etish masalasi o'quvchi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning muhim amaliy yo'nalishi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar jamoani shaxsning ijtimoiy faolligi, mas'uliyati va muloqot madaniyati shakllanadigan asosiy muhit deb hisoblaydilar. Jumladan, S. Mo'minov, Sh. Axmedova va G. Alimovlar ta'lim muhitida jamoaviy munosabatlarni maqsadli tashkil etish o'quvchilarning teng ishtiroki, hamkorligi va psixologik qulayligini ta'minlashini ta'kidlaydilar [1]. Ularning fikricha, jamoa bilan ishlash faqat tashkiliy emas, balki rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida qaralishi lozim.

Ta'lim jarayonida jamoaviy ishni samarali tashkil etish masalalari pedagogik texnologiyalar doirasida ham keng yoritilgan. D. M. Mamatkulov jamoaviy faoliyatni tizimli va izchil rejalashtirish shaxsiy fazilatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashini asoslab beradi [2]. Muallif jamoaviy ish tasodifiy tadbirlar emas, balki aniq maqsad, tamoyil va metodlarga tayangan holda tashkil etilgandagina ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Psixologik tadqiqotlarda jamoa ichidagi muloqot va o'zaro hurmat shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida qaraladi. I. M. Sirojiddinova va O. X. Pulatovalarning fikricha, jamoada sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lsa, o'quvchilarda ijtimoiy moslashuv, sabr-toqat va o'zini tuta bilish kabi sifatlar muvaffaqiyatli shakllanadi [3]. Ushbu yondashuv jamoaviy munosabatlarni faqat tashqi faoliyat emas, balki ichki psixologik jarayon sifatida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham sinfdan tashqari jamoaviy faoliyatlarning shaxsiy sifatleri rivojlantirishdagi ahamiyati e'tirof etilgan. İ. Çınar o'quvchilar klublari va jamoaviy tadbirlar ijtimoiy faollik, yetakchilik va mas'uliyat hissini shakllantirishda samarali vosita ekanligini qayd etadi [4]. Muallif bunday faoliyatlar o'quvchilarni erkin muhitda o'z qobiliyatlarini namoyon etishga undashini ta'kidlaydi. Pedagogik boshqaruv masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda jamoaviy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishda rag'batlantirish, rollarni taqsimlash va adolatli baholash muhim omil sifatida ko'rsatiladi. A. E. Kenjaboyev va B. X. Karimovlar jamoa bilan ishlashda pedagogik menejment usullaridan foydalanish o'quvchilarning faolligi va mas'uliyatini oshirishini asoslaydilar [5].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, jamoaviy munosabatlarni tashkil etish masalasi nazariy jihatdan yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ularning ta'lim jarayonidagi shakl va usullarini amaliy jihatdan tizimlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda jamoaviy munosabatlarni tashkil etishning amaliy mexanizmlarini nazariya bilan uyg'un holda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

**METODOLOGIYA.** Mazkur tadqiqotda o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini jamoaviy munosabatlar asosida rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks pedagogik-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi jamoani shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik muhiti sifatida talqin qiluvchi nazariy qarashlar hamda ta'lim jarayonida jamoaviy ishni tashkil etish amaliyotiga tayandi. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi, faoliyat yondashuvi va ijtimoiy-psixologik yondashuv metodologik asos sifatida tanlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning jamoa doirasidagi faol ishtiroki, o'zaro hamkorligi va mas'uliyatini tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida jamoaviy munosabatlar shaxsiy fazilatlarni rivojlantiruvchi tizimli pedagogik omil sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, tahlil va umumlashtirish, taqqoslash hamda faoliyat mahsulini o'rganish. Pedagogik kuzatuv usuli dars jarayonida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning jamoaviy faoliyatdagi xulq-atvori, muloqoti va hamkorlik darajasini aniqlashga xizmat qildi. Tahlil va umumlashtirish orqali jamoaviy ish shakllarining shaxsiy sifatlar rivojiga ta'siri aniqlashtirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar jamoasi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa jamoaviy munosabatlarni tashkil etish shakl va usullarining o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ta'siri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida jamoaviy ishning turli shakllari, jumladan, juftlikda ishlash, kichik guruhlarda faoliyat, munozarali darslar, rol o'ynash va loyiha topshiriqlari amaliy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda jamoaviy munosabatlarning samaradorligini baholash maqsadida monitoring elementlaridan foydalanildi. Bunda o'quvchilarning faolligi, o'zaro munosabatlari, mas'uliyatni bo'lishish darajasi va jamoa muhitining psixologik holati mezon sifatida belgilandi. Olingan natijalar taqqoslash va mantiqiy tahlil asosida umumlashtirilib, jamoaviy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xulosalar ishlab chiqildi.

**NATIJALAR.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlarni maqsadli va tizimli tashkil etish o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik kuzatuvlar va jamoaviy faoliyat tahlili natijasida jamoada faol ishtirok etgan o'quvchilarda mas'uliyat, hamkorlik, muloqot madaniyati va tashabbuskorlik kabi shaxsiy fazilatlarning sezilarli darajada rivojlangani aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida jamoaviy ish shakllari muntazam qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligi oshgani kuzatildi. Juftlikda va kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar bir-birini tinglash, fikr almashish va umumiy natija uchun javobgarlikni his qilish ko'nikmalarini egalladilar. Bu holat o'quvchilarning jamoaga moslashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchining ortishiga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, munozara va muammoli vaziyatlarga asoslangan darslar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va o'z nuqtai nazarini asoslash qobiliyatini

rivojlantirdi. Bunday darslarda o'quvchilar qarama-qarshi fikrlarga nisbatan bag'rikenglik bilan yondashishni, murosaga kelishni va muloqot madaniyatiga rioya qilishni o'rgandilar. Bu jarayon shaxsiy fazilatlarining ijtimoiy tajriba orqali shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Sinfdan tashqari jamoaviy tadbirlar, jumladan, klublar, musobaqalar, ijtimoiy foydali ishlar va sayohatlar o'quvchilarning jamoaviy ruhini mustahkamladi. Ushbu faoliyatlar davomida o'quvchilar tashabbus ko'rsatish, vazifalarni bo'lishish va jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish qobiliyatini namoyon etdilar. Natijada ularda ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlar kuchaydi. Shuningdek, pedagogik boshqaruv usullari - rag'batlantirish, rollarni taqsimlash, jamoa qoidalarini birgalikda ishlab chiqish va o'zaro baholash - jamoaviy munosabatlarni barqarorlashtirishda samarali bo'ldi. Ushbu usullar o'quvchilarda adolat hissini kuchaytirib, jamoa ichidagi nizolar sonining kamayishiga olib keldi. Monitoring jarayonida o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik darajasi va o'zaro qo'llab-quvvatlash holatlari oshgani qayd etildi.

**MUXOKAMA.** Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida jamoaviy munosabatlarni ilmiy asosda tashkil etish o'quvchi yoshlar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar jamoani faqat tashkiliy birlik sifatida emas, balki shaxs tarbiyasining faol subyekti sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bu holat pedagogik nazariyada ilgari surilgan jamoaning tarbiyaviy salohiyati haqidagi qarashlarning amaliy tasdig'i sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil natijalariga ko'ra, jamoaviy ish shakllari muntazam va tizimli qo'llanilganda o'quvchilarda mas'uliyat, hamkorlik va muloqot madaniyati kabi shaxsiy fazilatlar barqaror rivojlanadi. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash, munozarali darslar va loyiha faoliyati o'quvchilarni faol fikrlashga, o'z nuqtai nazarini asoslashga va jamoa manfaatlarini hisobga olishga undaydi. Bu jarayon shaxsiy fazilatlarining nazariy bilim emas, balki real faoliyat orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotda ilgari surilgan gipoteza tasdiqlandi: ya'ni jamoaviy munosabatlar maqsadli shakl va usullar asosida tashkil etilganda, o'quvchi yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyat hissi sezilarli darajada oshadi. Biroq, jamoaviy munosabatlarni boshqarishda pedagogik nazorat yetarli bo'lmasa, ayrim salbiy holatlar - passivlik, bo'linish va nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa o'qituvchining jamoa bilan ishlashdagi roli hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari jamoaviy munosabatlar samaradorligi sinf muhitigina emas, balki sinfdan tashqari faoliyat bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning erkin muhitda o'z qobiliyatlarini namoyon etishiga, jamoa bilan ijobiy emotsional bog'lanish hosil qilishiga imkon yaratadi. Bu holat jamoaviy munosabatlarni rivojlantirishda dars va darsdan tashqari faoliyat uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Muxokama jarayonida aniqlanganki, jamoaviy munosabatlarni samarali boshqarish uchun monitoring va baholash tizimi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'zaro munosabatlari, hamkorlik darajasi va jamoa muhitini muntazam tahlil qilish pedagogga ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'zaro va o'zini o'zi baholash usullaridan foydalanish o'quvchilarda refleksiya va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mo'minov S., Axmedova Sh., Alimova G. Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish: nomli metodik tavsiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, 2022. – B-
2. Mamatkulov D. M. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2024. – B-10.
3. Sirojiddinova I. M., Pulatova O. X. Kasbiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – 2021. – B-66.
4. Çınar İ. An examination of student club activities from the perspective of school principals and teachers // World Journal of Education. – 2019. – Vol. 9, No. 4. – P-123.
5. Kenjaboyev A. E., Karimova B. X. Pedagogik menejment asoslari. – Termiz, 2023. – B-47.